

## CHIVINLAR ORQALI YUQADIGAN KASALLIKLAR

*Rahmonov G‘ulomjon Rahimjon o‘g‘li**Mutaxassis O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi**Maxmudova Nodira Abduvohit qizi**magistr, yetakchi mutaxassis**O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi***Annotatsiya**

Ushbu maqolada chivinlar orqali yuqadigan yuqumli kasalliklar, ularning turi, tarqalish geografiyasi, kasallik alomatlari va ulardan saqlanish yo‘llari ilmiy asosda bayon etilgan. Asosan, **bezugak, denge isitmasi, sariq isitma**, Zika virusi va filariyatoz kabi kasalliklar tahlil qilinib, chivinlarga qarshi kurashishning samarali usullari keltirilgan.

**Аннотация**

В статье рассматриваются инфекционные заболевания, передающиеся через укусы комаров, такие как малярия, лихорадка денге, жёлтая лихорадка, вирус Зика и филяриатоз. Анализируются география распространения, симптомы и профилактика данных болезней.

**Annotation**

This article examines mosquito-borne infectious diseases such as malaria, dengue fever, yellow fever, Zika virus, and filariasis. It discusses their transmission, symptoms, geographic spread, and methods of prevention.

**Kirish**

Insoniyat tarixida turli yuqumli kasalliklar katta ofatlarga sabab bo‘lgan. Shulardan biri — chivinlar orqali yuqadigan kasalliklar bo‘lib, har yili millionlab insonlarga zarar yetkazadi. Chivin — oddiy va zararsiz ko‘ringan bo‘lishiga qaramay, biologik jihatdan eng xavfli hasharotlardan biri hisoblanadi. Ular turli viruslar, parazitlar va bakteriyalarni odamdan odamga yoki hayvondan odamga yuqishiga sabab bo‘ladi.

**Chivinlar** - 3500 dan ortiq turni o‘z ichiga oladi. Ularning faqat urg‘ochilari qon so‘radi, chunki tuxum yetilishi uchun qon zarur. Qon so‘rish jarayonida chivin og‘zidan tana ichiga tupurik yuboradi va aynan shu suyuqlik orqali turli patogenlar tanaga kiradi. Chivinlar suvda, nam tuproqda, o‘simliklar to‘qimasida va chirindilar orasida yashaydi. Voyaga yetgan chivinlar havoda hayot kechiradi, kamdan-kam turi (masalan, yapon dengiz chivini)ning barcha rivojlanish fazasi suvda o‘tadi. Chivinlarga g‘urra yasalar, zamburug‘ chivinlari, uzunoyoq chivinlar, jarangdor chivinlar, qon so‘rar chivinlar, zahkashlar, iskaptoparlar, bukri pashshalar va boshqa

oilalar kiradi. Chivinlar o‘simlik to‘qimasi, odam va hayvon qoni bilan (bunda yuqumli kasalliklarni tarqatadi) oziqlanib zarar keltiradi. Qon so‘radigan chivinlar turli yuqumli kasalliklarni (masalan, [bezugak](#), [leyshmanioz](#)) tarqatadi. Chivinlar hasharotxo‘r hayvonlar (qushlar, ko‘rshapalaklar)ning, ularning suvdagi lichinkasi esa suv hayvonlari, ayniqsa, yosh baliqlarning asosiy ozig‘i sifatida katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston faunasida haqiqiy chivinlar (25 ga yaqin tur), bukri chivinlar (51 tur), zahkashlar (60 tur), iskabtoparlar (17 tur) keng tarqalgan.

**Chivinlar orqali yuquvchi kasalliklardan biri bu - bezgak** ( malaria, malaria – badbo‘y havo) – bezgak plazmodiylari qo‘zg‘atadigan invazion kasallik; isitma tutishi, qonda jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishi, kamqonlik, jigar va taloqning kattalashuvi bilan kechadi. Bezgakning plazmodiysi to‘rt xil, shunga ko‘ra bezgakning uch kunlik, to‘rt kunlik, tropik va Afrika xillari bor. Bezgak plazmodiysi Bezgak chivini va odam organizmida ko‘payib rivojlanadi. Kasallik manbai bemor va Bezgak chivini (asosan urg‘ochisi) hisoblanadi. Bezgak plazmodiysi Bezgak bilan og‘rigan bemor organizmida jinssiz (shizogoniya), kasallikni tashib yuruvchi – anofeles chivini tanasida esa jinsiy yo‘l bilan rivojlanadi. Kasallik sog‘lom odamga chivin chaqqanda, odam organizmiga uning so‘lagi orqali qo‘zg‘atuvchilar tushganda yuqadi. Qon oqimi bilan ular jigarga tushadi, bu yerda rivojlanishning birinchi (to‘qima) sikli ro‘y beradi, so‘ngra yana qonga tushadi va eritrotsitlar ichiga kirib oladi, bu yerda ikkinchi (eritrotsitar) rivojlanish sikli o‘tib, eritrotsitlarning parchalanishi va qonga ko‘p miqdorda qo‘zg‘atuvchilar chiqishi bilan tugallanadi, bu odamni isitma tutishi bilan o‘tadi. Bezgak o‘tkir yuqumli kasallik bo‘lib, [Anofeles](#) (bezugak chivinlari) [chivini](#) orqali yuqishi, qaltirash, tana harorati ko‘tarilishi, [taloq](#) va [jigar](#) kattalashishi hamda kamqonlik bilan xarakterlanadi. Bezgak ilmiy tilda malaria deb ataladi va bu malariæ so‘zidan olingan bo‘lib, mal – badbo‘y, ariæ – hid yoki havo degan ma‘noni anglatadi. Uni juda kichik parazit-plazmodiylar qo‘zg‘atadi. Ularni faqat mikroskop ostida ko‘rish mumkin.

Virus inson qonida yashab, ko‘payadi va qizil qon tanachalarida joylashib, ularni parchalaydi hamda qon ishlab chiqarish, asab, yurak qon-tomir va organizmning boshqa tizimlarini ishdan chiqaradi. Ba‘zan kasallik shunchalik og‘ir kechadiki, agar davolash o‘z vaqtida boshlanmasa, bemor bir necha kundan so‘ng asosan tropik bezgakda vafot etadi. Harorat ko‘tarilganda yoki bezgakning boshqa belgilari namoyon bo‘lganda, albatta tibbiy yordamga murojaat qilish kerak. To‘g‘ri tashxis qo‘yishda qon tahlili shart. Agar siz oxirgi 3 yil davomida Markaziy va Janubiy-Sharqiy Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari hamda Tojikiston va respublikamizning janubiy viloyatlariga chiqqan bo‘lsangiz, u yerda bezgak bilan zararlanish xavfi yuqoriligini hisobga olgan holda, har qanday darmonsizlik kuzatilsa, albatta barmoqdan qon topshirishingiz lozim. Qo‘zg‘atuvchi odam organizmida 10—14 kungacha (ba‘zan, bir yilgacha va bundan ko‘proq) bo‘lib, kasallik belgilarini

qo'zg'atmasligi mumkin (inkubatsion yoki yashirin davr). Kasallik to'satdan boshlanadi: bemorni isitma tutib, junjiydi, qaltiraydi (u ba'zan shu qadar qatgiq qaltiraydiki, hetto ustiga issiq ko'rpa yopilganda ham sovuq qotadi), keyin qaltirash bosilib, harorat ko'tariladi ( $41 - 41,5^{\circ}$ ), bemor bo'riqib, qizaradi.

Isitma bir necha soat tutadi. So'ngra harorati tez pasayib, ba'zan bir maromga tushadi; shu payt bemor qattiq terlaydi, ertasiga o'zini sog'lom g'is qiladi. Keyin yana isitma tutadi; uch kunlik Bezgakda – ikki kunda bir marta, to'rt kunlik Bezgakda – har uch kunda bir marta, tropik Bezgakda – ko'pincha kun sayin isitma tutib turadi. Isitma tutayotgan bemorning qoni tekshirilganda, Bezgak plazmodiylarini topish mumkin. Bezgak tutavergach, plazmodiylar qizil qon tanachalari (eritrotsitlar)ni parchalashi sababli bemor kamqon bo'lib qoladi, talog'i va jigari kattalashadi, oq qon tanachalari (leykotsitlar) ancha kamayadi. Bezgak davolanmay qolib, kasallik uzoq davom etganda tinkani quritib, mehnat qobiliyatini susaytiradi, bolalar o'sish va rivojlanishdan orqada qoladi. Bemor o'z vaqtida davolanmasa yoki chaladavolansa, Bezgakka boshqa kasalliklar qo'shiladi. Bezgakning og'ir shakli bilan og'riqlarda, shuningdek bolalarda koma holati, ba'zan o'lim yuz berishi mumkin. Bemor barvaqt to'g'ri davolangavda sog'lig'iga pugur yetmaydi, undan atrofdagi kishilarga Bezgak chivinlari orqali kasallik yuqish ehtimoli yo'qoladi.

Isitmaning xurujiga, taloqning katta-lashganiga, chap biqin sohasida og'riq turishi va badan za'faron tus olishiga qarab, bemorda Bezgak bor deb taxmin qilish mumkin. Ammo Bezgakni aniq bilish uchun bemordan qon olib, mikroskopda tekshirish shart. Bemorni vrach davolaydi. Unga tinch sharoit va yaxshi parvarish zarur. Ka-sallikning oldini olishda asosiy e'ti-bor bemorlarni erta aniqlash va davolashga qaratilgan bo'lishi kerak. B. chivini ko'p uchraydigan joylarda himoya kiyim-boshi va chivinni keltirmaydigan dori vositalaridan foydalanish lozim.

**Kasallikning tarqalishi** - bezgak kasalligi sog'lom insonga bemordan, yuqorida qayd etilgan Anofeles [turiga](#) mansub chivinlarning chaqishi orqali o'tadi. Chivin bezgakka chalingan insonni chaqqanida, uning oshqozoniga qon orqali parazitlar tushadi. Chivin organizmida parazitlar bir necha kun rivojlanadi va yuqumli parazit tashuvchisiga aylanadi. Sog'lom odamni chaqqanda chivinning so'lagi orqali infeksiya odam organizmiga tushadi hamda ma'lum bir vaqt ichida insonda kasallik belgilari paydo bo'ladi. Bezgak chivinlarining hayot tarzi murakkab bo'lib, suv va havoda o'tadi. Suv va havo harorati qulay bo'lsa, rivojlanishning butun jarayoni 10-20 kun davom etadi. Chivinning urg'ochisi suvga tuxum qo'ygandan keyin undan g'umbaklar chiqib qo'g'irchoqqa aylanadi va ulardan qanotli chivinlar uchadi. Chivinlar ozuqa izlab bir martada 3 km.gacha bo'lgan masofani bosib o'tishi mumkin. Bezgak ko'zg'atuvchisi bilan zararlangan chivin ikki oy davomida kasallik yuqtirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bezgak chivinlari daryo sohillari, botqoqlashgan suv havzasi, sholipoyalar, axlat chiqindilari to'lib ketgan, turg'un suvli yoki oqimi sekin ariqlar, suv

quvurlarining ishdan chiqishi natijasida, vaqtincha vujudga keladigan suv havzalarida ko'payadi.

Avval ta'kidlab o'tilganidek, bezgak faqatgina bezgak chivinlari mavjud joylarda tarqaladi. Buning uchun eshik va derazalarni himoya to'rlari (doka, temir yoki polietilen setka) bilan qoplash, hasharotlardan himoya qiluvchi to'r (pashshaxona) o'rnatish lozim. Bundan tashqari, maxsus elektrik moslamalar yoki fizik qurilmalar yordamida chivinlarni qo'rqituvchi spiral va plastinalarni qo'llash mumkin. Chivinlar soni va ular ko'payayotgan erlarni kamaytirish uchun keraksiz suv havzalari va botqoqlarni yo'qotish, suv havzalarida chivin qurtlari bilan oziqlanadigan gambuziya baliqchasini ko'paytirish, xonalar va suv havzalariga insektitsidlar (zaharli ximikatlar) bilan ishlov berish lozim. Bu ishni DSENM hamda dezinfeksiya stansiyalari xodimlari amalga oshiradilar. Faqatgina o'z vaqtida va to'g'ri davolash kasallikning oldini olishi mumkin. Issiq iqlimga ega bo'lgan chet davlatlarga ketishdan avval, albatta, sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi shifokori yoki oilaviy shifokoringiz bilan bezgakning oldini olish choralari to'g'risida maslahat olishingizni tavsiya etamiz.

**Leyshmanioz** — odam va xayvonlarda uchraydigan kasallik. Ko'proq tropik va subtropik iqlimli mintakalarda qayd etiladi. Leyshmaniyalar qo'zg'atadi va iskabtoparlar orqali yuqadi. Infeksiya manbai kemiruvchilar hisoblanadi. Teri leyshmaniozi (qarang [Yomon jarohat](#)) va ichki a'zolar visseral leyshmaniozi farq qilinadi. Visseral leyshmanioz "kalaazar" deb ham yuritiladi. Kasallikning bu turi bilan ko'proq bolalar kasallanadi (birinchi bo'lib kasallik qo'zg'atuvchisini topgan ingliz vrachi U.Leyshman nomidan olingan). U surunkali kechadi, ichki a'zolar jiddiy zararlanadi; dam-badam isitma xuruj qilishi, jigar va taloqning nihoyatda kattalashuvi, anemiya va juda oriklab ketish kasallikka xos alomatlaridir. Ko'pincha, o'lim hollari kuzatiladi. Davolash uchun tarkibida surma bor preparatlar (solyusurmin, stibanol, neostibodan va boshqalar) qo'llanadi. Oldini olish iskabtopar va kemiruvchilarni qirishdan iborat. Shaxsiy himoya vositasi — repellentlardan foydalaniladi. (**Quyida chivinlarning qon so'rish jarayoni tasvirlangan 1-rasm**)





(Chivinlarning qon so‘rish jarayoni 1-rasm)

### Xulosa

Chivinlar orqali yuqadigan kasalliklar insoniyat salomatligiga jiddiy xavf soluvchi omil hisoblanadi. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi va global migratsiya bu kasalliklarning tarqalish ehtimolini yanada kuchaytirmoqda. Bu xavfni kamaytirish uchun ekologik muhitni sog‘lomlashtirish, aholiga ma’lumot berish, vaksina va dezinfeksiyalash ishlarini kuchaytirish muhim hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida bu boradagi choralar davom ettirilishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградова Е. Б., Карпова С. Г.. *Сезонные и суточные ритмы кровососущих комаров*. СПб.: Зоологический институт РАН, 2010.
2. ↑ Шарков А. А.. *Кровососущие комары (Diptera, Culicidae) Мурманской области*. Петрозаводск: Изд-во "Карелия", 1980.
3. ↑ Кухарчук Л. П.. *Экология кровососущих комаров (Diptera, Culicidae) Сибири*. Новосибирск: Наука, 1981.
4. [O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi](https://ensiklopediya.uz) (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.
5. G‘ulomov B.K. — “Tibbiy entomologiya asoslari”, Toshkent, 2019.
6. To‘raqulov H.M. — “Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya”, Samarqand, 2020.
7. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi — Epidemiologik axborot byulleteni, 2022.